

Yondosh mavzu:
asal va asalari.

Yig'indini songa
ko'paytirish, ustun shaklida
ko'paytirish.



1. Bo'lishni bajaring. Yashiringan so'zlarni toping.

L 49 : 7

S 56 : 7

I 54 : 9

R 45 : 5

U 40 : 8

A 24 : 12

Y 36 : 9

2	8	2	7	2	9	6
---	---	---	---	---	---	---


5	4	2	8	6
---	---	---	---	---



2. Aziza asalarining uyasi ajoyib shaklda ekanini ko'rdi.
Bu qanday shakl? Bu shaklni daftaringizga chizing.



3. Afzal yuzni guruch yordamida
aniqlashni o'rganib olmoqchi.
Rasmni ko'rib chiqing. U olti
burchakning yuzini qanday qilib
topishi mumkin? U nimani o'lchov
birligi sifatida qabul qildi?



4. U kvadrat ichidagi guruch donalarini sanab chiqib, 1 cm^2 ga
8 ta guruch donasi sig'ishini aniqladi. Oltiburchakning ichiga
43 ta guruch donasi sig'gan bo'lsa, oltiburchakning kvadrat
santimetrlardagi yuzini toping.

67. Yuzni topishning nostandart usullari



5. Afzal xuddi shu usul bilan har xil shakllarning yuzini hisoblamogchi bo'ldi. Shunga o'xshash shakllarni daftaringizga chizing. Ularning kvadrat santimetrdagi yuzini toping.


	Donalar soni	Yuzi
	?	?
	?	?
	?	?
	?	?
	?	?



6. Bo'yalgan qismlar nima uchun bunday atalishini o'ylab ko'ring.



Yarim



Uchdan bir



Chorak

Qaysi rasmda yarim, uchdan bir va chorak ko'rsatilganini ayting.



67. Yuzni topishning nostandart usullari




7. Asalarichida 12 ta bir litrlik va 23 ta ikki litrlik idishlarga solingan asal bor. Unda jami necha litr asal bor?



8. Soatga qarab, asalari ertadan kechgacha qancha vaqt tinmay ishlashini aniqlang.



9. Bitta uyaning yuzi 5 sm^2 bo'lsa, bu asalari inining yuzini toping.



10. Daftarga bo'yi 4 cm, eni 3 cm bo'lgan uchta to'rtburchak chizing. Birinchi to'rtburchakning yarmini, ikkinchisining uchdan birini, uchinchisining chorak qismini bo'yang.



11. Katta idishdagi asal kichkina idishdagidan uch baravar ko'p. Kichik idishdan ikki litrlik idishlarga asal solingan edi, 48 ta idish chiqdi.
a) Katta idishda qancha asal bor?
b) Ikkala idishda qancha asal bor?

